



## INGLIZ TILINI O`QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Berdiniyozov Lochinbek

Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eng so`ngi innovation texnologiyalaridan foydalanish va yurtimizdagi eng so`ngi islohatlar yoritib o`tilgan. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng, chet tillarini o`rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko`plab imkoniyatlar yaratib berildi. Bularning barchasi yoshlarimizning o`qib o`rganib yurtimizga o`z hissasini qo`shishdan iborat.

**Kalit so`zlar:** innovatsion, ta`lim, odob, texnika, texnologiya, yo`nalish, jamiyat.

### Kirish

Birinchi prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o`rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyati o`ziga munosib o`rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriqlarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o`z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo`qdir”. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini” o`rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Prezident Qarori chet tillarini o`rganish imkoniyatlarini kengaytirdi. Respublikamizda chet tilining o`qitilishi, chet tili o`qituvchilarining bilim va ko`nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko`ra umumta`lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o`quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o`quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o`rganishga bo`lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to`rt aspectga (o`qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtish) bo`linib, ularning har biri bo`yicha alohida tushuncha va ko`nikmalar berilmoqda. Ta`lim texnologiyalari, bu ta`lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta`lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta`lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o`rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o`rganish va o`qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o`rganishning har bir aspect (o`qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtish)ida qo`l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o`rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o`quvchi bir paytning o`zida so`zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi,



so`z boyligi va uning ma`nolariga e`tibor berishi talab qilinadi. Ta`lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o`quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o`rgatish va o`rganish eng samador usullardan biri. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o`quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko`rishi ham eshitishi ham mumkin. chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an`anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o`quvchilarning chet tilini o`rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo`lishini ta`minlaydi [1]. Bugungi kunda maktablarda interfaol o`yinlar orqali dars o`tish an`anaga aylanib bormoqda. Ma`lumki, darsning turli xil o`yinlar asosida o`tilishi o`quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko`nikmalarini oshirish va kuchli bo`lishlarini ta`minlaydi.

O`yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o`quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta`kidlashlaricha, o`yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o`zini namoyon qilish, hayotda barqaror o`rnini topish, o`zini o`zi boshqarish, o`z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o`yin zamirida umumiyligini qilingan ta`lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O`quv o`yinlariga o`quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O`yinlar jarayonida o`quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg`ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko`rsatadi. Ta`kidlash lozimki, o`yin eng avallo, o`qitishning bir usulidir. O`quvchilar o`yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g`alaba qozonishga intiladilar, o`qituvchi ular orqali o`quvchiga ta`lim-tarbiya ham beradi. O`quvchi inglizcha o`yin o`ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqdadi. Biz bilamizki, hozirgi ta`lim jarayonida o`quvchi sub`ekt bo`lishi lozim. Bunda ko`proq interfaol metodlarga e`tiborni qaratish ta`lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo`yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o`rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o`qituvchilari Amerika Qo`shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda: — “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo`llash uchun hikoyaning boshlanishi o`qib beriladi qanday yakun topishi o`quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; — “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o`quvchilarga topishmoqlar o`rgatish Ingliz tilini o`rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o`zlariga notanish bo`lgan so`zlarni o`rganadilar va o`ylab topishmoq javobini topadilar; — “Tezkor javob” (Quick answers) o`tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; — “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o`quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o`yinlardan foydalanish [3]; — “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo`lgan



darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo`ladi; – “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o`quvchilarning og`zaki nutqini o`stirishda yordam beradi; – “Rolli o`yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo`llanilishi mumkin. Hunarga o`rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o`quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin; – “Allomalar yig`ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so`zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo`lib tarbiyalanishiga yordam beradi; – “Rasmlar so`zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo`lib, ingliz tilini o`rgatishda, talaba, o`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim; – Kviz kartochkalari (quiz cards) o`quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtida darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtini tejaydi [4]. Ko`rib chiqqnimizdek, har bir innovatsion texnologiya o`ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi hamkorlik, o`quvchining ta`lim jarayonidagi faol harakati ko`zda tutiladi.

Bundan olti asr avval buyuk o`zbek yozuvchisi va o`zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy shunday degan edi: " til-biz uning qadrini ifoda eta olmaydigan marvariddir". Buyuk shoir takidlaganidek, chet tillarni va ularning qadriyatlarini o`rganish hali ham insonlarni karyera qilishi, jamiyatda o`z o`rnini topish va hatto ona zaminimiz O`zbekistonning go`zal qiyofasini xalqaro sahnalarga olib chiqish uchun asosiy hamda zarur bolgan omil hisoblanadi. Shunday kerakli imkoniyatlarni bizga chet tillaridan biri bo`lgan ingliz tili bera oladi.

Bilamizki, O`zbekistonda insonning jinsi, tili, dini, e`tiqodi, millati, irqi hamda ijtimoiy mavqeiyidan qat`iy nazar ta`lim olish huquqi kafolatlangan. Ta`lim olish jarayoni asosan quyidagi davrlarga bo`linadi:

- maktabgacha ta`lim va tarbiya;
- umumiy o`rta va o`rta maxsus ta`lim (davlat maktablari, xususiy maktablar, president maktablari, litseylar);

Hozirda nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o`tkaziluvchi tadqiqotlarga ko`ra Finlandiya yoshlari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini ko`rsatishgan. Bu davlat yoshlari ayniqsa matematika, tabiiy fanlar, umumiy savodxonlik bo`yicha yuqori natijalarga erishishmoqda. Bunga ta`lim jarayoni yetita tamoyil:tenglik, bepul, individuallik, amaliyat, ishonch, xohish-istik, mustaqillik orqali olib borilmoqda.

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ta`lim tizimini takomillashtirish bo`yicha o`tkazilgan videoselektor yig`ilishida Finlandiya ta`limini misol qilib, maktabda o`qitish metodikasi o`zgarmasa, ta`lim sifati ham, mazmuni ham muhit ham o`zgarmasligini ta`kidlaydi.



Jumladan, O`ZDJT universiteti o`qituvchisi Shahlo Azamova maktabgacha bolalarga chet tillarini o`qitishga bag`ishlangan maqolasida bog`cha bolalari uchun turli qiziqarli metodlardan samarali foydalanish juda yaxshi samara beradi deb hisoblaydi. U ingliz tilini misol qilib, "Belgililar va rasmlar bilan ishlash usuli"da rasmdan so`zga tarjima qilishni ta`riflaydi. Shuningdek o`qituvchi o`z maqolasida boshqa bir necha uslublarini ham berib o`tadi. Bu usullar bolalar xotirasida so`zlarni yaxshi saqlanishiga ham yordam beradi. Umuman olganda ingliz tilini kengayish doirasi O`zbekistonda mustaqillik erishgandan keyin boshlanishiga qaramasdan, yaqin davrgacha judayam sust holda, an`anaviy o`qitish uslubi (traditional way) bilan kechgan. Hozirda esa interaktiv darslar ko`proq kommunikativ uslubga tayangan holda, qiziqarli tarzda iduktiv (inductive way) va deduktiv (deductive) yo`l bilan til o`rganuvchilarni samarali o`qitilishiga bosqichma-bosqich erishilmoqda. Lekin shunga qaramay, ingliz tilida so`zlashish indeksi (EF English Proficiency Index) tadqiqotlariga ko`ra O`zbekiston 112 ta davlat orasida 88 o`rinda turmoqda. Reyting bo`yicha O`zbekiston Albaniya hamda Suriya o`rtasida joylashgan bo`lib, ingliz tilini bilish darajasi juda past deb baholangan davlatlar guruhiga kiritilgan. Shuni ham ta`kidlash joizki, oliy ta`limdan keyingi o`quv jarayoni ham qabul qilinayotgan qarorlar ta`siridan chetda qolmadi. Masalan, davlat Prezidenti tomonidan doktorantura hamda stajyor tadqiqotchilik uchun o`qishni istayotgan talabgorlardan mutaxisisliklar uchun C1, nomutaxisisliklar uchun esa B2 sertifikatini olish majburiy deb belgilandi. Yuqorida qayd etilgan qarorlar umumiy o`ta ta`lim muktablarida hamda oliy ta`limda dars berayotgan o`qituvchilarning bilim darajasini sezilarli darajada yaxshilashiga ko`maklashmoqda.

Ushbu qarorlar, mamlakat miqyosida yoshlarga ingliz tilini keng o`qitilishini ta`minlab beruvchi turli o`quv markazlarining ochilishi va ko`payishiga sabab bo`lmoqda. Jumladan, hozirgi kundagi ingliz tilini o`qituvchi o`quv markazlarning umumiy soni 88261 tani tashkil etmoqda.

Bilamizki, ingliz tili nafaqat ta`limda balki, texnologiya, internet, axborot xatto turizmda ham eng kerakli bo`lgan universal tilga aylanib ulgurdi. Lekin har bir rivojlanish yaxshi olingan va berilgan ta`limga borib taqaladi. Bundan tashqari ayni paytda virtual olamdan foydalanish, kompyuter grafikalari yaratish maksimal darajada kuchayib bormoqda qolaversa, mashhur veb brauzerlarning ko`pchiligi asosan Amerika davlatida joylashgan, o`z-o`zidan ular ish tili ingliz tilida yuritiladi. Yoki oddiy hayotimizda foydalanadigan texnika ham inglizcha qo`llanilish yo`riqnomasiga ega. Demak ingliz tili nafaqat ta`lim sohasida odatiy turmushimizda ham zarur bo`lib bomoqda. Undan foydalanish uchun ta`lim jarayonida uni yaxshiroq egallashimiz zarur.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Azamova Sh. Maktabgacha ta`lim jarayonida xorijiy tillarni o`qitishning zamонавиј metodikalari - "Science and education" scientific journal April 2022 volume 2 issue 4
2. Bekmuratova U. B. "Ingliz tilini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
3. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "CHET TILINI O`QITISHDA YORDAMCHI VOSITALARDAN FOYDALANISH". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005
4. N.Q.Xatamova, M.N.mirzayeva. "INGLIZ TILI DARSLARIDA QO`LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR" (uslubiy qo`llanma), Navoiy, 2006, 40 bet
5. Отабоева, М. Р. Chet tilini o`qitishda zamонавиј innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. — Текст: непосредственный, электронный // Молодой ученый. — 2017. — № 4.2 (138.2). — С. 36–37. — URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 27.04.2020)
6. O`Hoshimov, I. Yoqubov. "INGLIZ TILI O`QITISH METODIKASI" (o`quv qo`llanma) Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2003
7. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
8. [www.kun.uz](http://www.kun.uz)
9. <http://uza.uz/en/society/president-resolves-to-develop-foreign-language-learning-system-11.12.2012-3147>
10. <https://www.norma.uz/oz>